

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10900206>

QOBILIYATLI BOLALARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN ANIQLASH VA ULAR BILAN ISHLASH

Madaminova Saida Qutlimiratovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi

Chimboy tumani 40-sonli mакtabning amaliyotchi psixologи

Annotatsiya: Maqolada qobiliyatli bolalarini psixologik jihatdan aniqlash va ular bilan ishlash, bolalardagi qobiliyatning ko'rinishi – bu nutqning erta paydo bo'lishi va juda ko'p bo'lgan lug'at boyligi va shuningdek, qobiliyatli bolalar tevarak-atrofda sodir bo'layotgan voqealarga o'ta qiziquvchan ekanliklari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: qobiliyatli bolalar, iqtidorli o'quvchi, o'qituvchi, qobiliyat.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida iqtidorli bolalar bilan ishlashni tashkil etishning o'ziga xos tizimi mavjud bo'lib, unda muassasada mavjud barcha sub'ektlar ishtirok etadi. Jumladan, mакtab direktori va uning o'rinnbosarlari, uslubiy birlashmalar, sinf murrabbiysi, xotin-qizlar va yoshlar tashkilotlari, ota-onalar hamda barcha o'qituvchimurabbiylar shular jumlasidandir. Mazkur sub'ektlarning iqtidorli bolalar bilan ishlashda o'z vazifalari bo'lib, ular yagona maqsadni amalga oshiradilar. Ta'lif muassasalarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'limi yoki mакtab «Kichik akademiyasi» tashkil etilishi mumkin, uning rahbarligiga salohiyatli direktor o'rinnbosari mas'ul etib tayinlanadi.

Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maqsadida umumiy o'rta ta'lif mакtabi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomा;
- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning yillik rejasi va jadvali;
- yillik hisobotlar;
- iqtidorli o'quvchilarga oid mакtab direktori buyruqlari;
- uslubiy birlashmalar bo'yicha iqtidorli o'quvchilar ro'yxati;
- o'qituvchilarning iqtidorli o'quvchilarga bergan tavsiyalari va unga ilova qilgan hujjatlar va fotosuratlar, o'quvchilarning yaratayotgan ishlari va mакetlari;
- konferenциялар, fan olimpiadalari, «Bilimlar bellashuvi», tanlov, musobaqalar o'tkazilishiga oid hujjatlar.

O‘quvchilarda iqtidor ayniqsa faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Bolaning shaxsiy nuqtai nazari, xotirasining o‘tkirligi fikr almashish jarayonida ham ma’lum bo‘ladi. Iqtidorning yorqin va yashirin namoyon bo‘lish shakllari mavjud. Yorqin iqtidor o‘quvchilar faoliyatida tezda namoyon bo‘ladi. Har qanday sharoitda ham bunday iqtidorni ilg‘ab olish mumkin. Yashirin iqtidor esa o‘quvchi faoliyati jarayonida tezda ko‘zga tashlanmaydi.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko‘nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o‘zi bu bilim va ko‘nikmalarga taalluqli bo‘lmaydi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan faoliyatlardagina namoyon bo‘ladi. O‘quvchida ham zaruriy ko‘nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo‘qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko‘rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo‘q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo‘ladi.

Qobiliyatli bola kim? Qobiliyat ko‘p qirralidir. Yosh bolalardagi qobiliyatning ko‘rinishi –bu nutqning erta paydo bo‘lishi va juda ko‘p bo‘lgan lug‘at boyligidir. Bundan tashqari qobiliyatli bolalar tevarak-atrofda sodir bo‘layotgan voqealarga o‘ta qiziquvchan bo‘ladilar. Iste’dodli bolalarning xotiralari juda yaxshi rivojlangan bo‘lishini mutaxassislar e’tirof etganlar. Qobiliyat asosan uch o‘zaro bog‘liq parametrlar bilan aniqlanadi: bilim darajasining ustunlik, psixologik rivojlanish, fiziologik sifatlar. Qobiliyatli bolada bilish jarayonlari: Ular bir vaqtning o‘zida juda ko‘p ishlar bilan shug‘ullanadilar, ular juda qiziquvchan bo‘ladilar, kuchli xotiraga egadirlar va diqqatlarini bir joyga to‘play oladilar. Qobiliyatli bolada psixologik rivojlanish: Haqiqat hissi yaxshi rivojlangan, qadriyatlarning shaxsiy tizimi, hayolning o‘ta rivojlanganligi, hazil hissining mavjudligi, o‘zлari uchun to‘g‘ri kelmaydigan vazifalarni echishga harakat qilishi, ular qo‘rquv holatini oshirib yuborishlari ham mumkin, ularda egoцentrizm kuchli bo‘ladi. Qobiliyatli bolada fiziologik sifatlar: Qobiliatlarda ikki xil streotip mavjud: biri ozg‘in, kichkina nimjon bola yoki uning aksi. Iste’dodlilar juda kam uxlashadi. Rus olimi I.P.Pavlov o‘z ta’limotida «badiiy», «fikrlovchi», «o‘rta» tiplarga ajratilgan shaxslarning ana shu uchta tipdan bittasiga taalluqli ekanligini tavsiflab beradi. Muallif ushbu tipologiyani yaratishda oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimidan iboratligi to‘g‘risidagi ta’limotga asoslanadi. Birinchi signallar tizimi obrazlar, emоciyalardan va ikkinchi signallar tizimi esa obrazlar haqida so‘zlar orqali signal berishdan iboratdir. Ikkinchi signal tizimi I.P.Pavlov tomonidan «signallarning signali» deb nomlangan edi.

Ushbu tipologiyani osonroq qilib quyidagicha tushuntirish mumkin:

- 1) shaxs faoliyatida birinchi signallar tizimining signallari nisbatan ustunlik

qilsa, bu inson «badiiy» tipga taaluqlidir;

2) mabodo «signallarning signali» nisbatan ustuvor bo‘lsa, bu shaxs «fikrlovchi» tipga mansubdir;

3) agarda har ikkala signallar aralashib ketgan bo‘lsa (birortasining ustunligi sezilmasa) bu inson “aralash” tipga mansub odamdir.

Iste’dodli bolalar bilan ish olib borishda mutaxassislarning fikri iste’dodli bolalar bilan ishslashda Karne, Shvedal, va Linnemayerlar quyidagi mezonlarni ishlab chiqganlar:

1. Har bir bola takrorlanmasdir. Ba’zilari she’r yozish, insholardan, ba’zilari matematikadagi qobiliyati bilan ajralib turadilar. Oddiy mакtabda musiqaga qobiliyati bor o‘quvchini ham ajrata olmasligimiz mumkin. Uchinchi bir bola esa yuqori intelektli bilan ajralib turadi, lekin bu bolaning o‘zini baholash mezoni juda past bo‘lishi mumkin. Shu orqali xar bir bolaning kuchli va kuchsiz tomonini bilishimiz lozim. Shu orqali iste’dodli bolalar bian ishslash rejasini tuzish mumkin.

2. Iste’dodli bolalar o‘zlariga nisbatan juda tanqidchandirlar. Ular o‘z “men”ini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. Yaqin qarindoshlarining ta’siri iste’dodli bolalar uchun juda muhimdir. ular yaqinlarining fikrini inobatga oladilar.

3. Iste’dodli bolaning rivojlanishi va kamol topishida oilaning o‘rni juda kattadir. Agar oila maktab o‘zaro aloqada bo‘lsa, bu eng yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin.

4. Iste’dodli bolalar uchun turli xil o‘quv rejasini tuzish. Iste’dodli bolalarning qiziqish va extiyojlarini inobatga olib o‘quv rejalarini ishlab chiqilishi lozim. Ko‘pgin iste’dodli o‘quvchilarning qiziqishlari ko‘p qirralidir.

5. Iste’dodli bolalar oddiy bolalar bilan o‘qigan taqdirda xam, iste’dodli boshqa bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak.

6. Iste’dodli bolalarning dasturi xar tomonlama mukammal bo‘lishi zarur.

7. Iste’dodli bolalarni o‘qitish uchun tuzulgan rejani shu sohadan xabardor bo‘lgan rahbarning o‘zi nazorat qilgan taqdirdagina samara berishi mumkin.

8. Ota-onalarga va mutaxassislar bir-birlari bilan hamkorlik qilishlari muhimdir. Bu hamkorlik iste’dodli bolalarning iste’dodini rivojlantirish uchun xam muhimdir.

9. Bolaning o‘ziga nisbatan bahosini bilishimiz muhimdir. Bola o‘zinig oldiga qo‘ygan qanday vazifalarni bajarilayotganligini ham bilish kerak, ota-onalarga bundan xursanmi?

Shunday qilib, iste’dodli bolalar bilan ishslashda talantli tarbiyachi, o‘qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar maktabga ham ota-onalarga ham juda zarurdir. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, tanlash va tarbiyalash borasida mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyat taraqqiyotini ta’minlash, vatanimiz iqtidoriy salohiyatni dunyo miqyosida namoyon etish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Davletshin M.G. va b. YOsh davrlari va pedagogik psixologiya. T.: 2004
2. Rean A.A. i dr. Psixologiya i pedagogika. S-Peterburg.: 2001